

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

GAZETA.UZ INTERNET NASHRIDA DATA JURNALISTIKANING O‘RNI

Aygul Jienbaeva

O‘zJOKU xalqaro jurnalistika yo‘nalishi

2-bosqich magistranti

Annotatsiya:

Data jurnalistika o‘zbek mediasida endi ommalashib kelayotgan internet jurnalistikasining yangi yo‘nalishidir. Uning an‘anaviy jurnalistikadan farqi — ma‘lumotlarni vizual tarzda taqdim etishida. Mazkur maqolada Gazeta.uz internet nashri va unda e‘lon qilingan data materiallar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: data, statistika, fakt, internet, infografika, diagramma, mass-media.

Hozirda data jurnalistikadan foydalanish har bir nashr uchun katta yutuq olib keladi. Sababi so‘nggi vaqtlari auditoriyaning matnli xabarga nisbatan vizual formatda tayyorlangan yangiliklarga ehtiyoji ortib bormoqda. Bunday mazmundagi maqolalarni tayyorlash esa obunachilarni qiziqtirishi va yangiliklardan tezkor tarzda boxabar bo‘lishiga imkoniyat yaratadi.

Data jurnalistika — jurnalistikaning bir turi bo‘lib, unda chigal va murakkab voqeani tushuntirish uchun juda katta hajmdagi ma‘lumotlar to‘plami (raqamlar, statistikalar, faktlar) o‘rganiladi va ular asosida qiziqarli infografika, diagramma, xaritalardan foydalanib hikoyalar yaratiladi, maqolalar yoziladi.¹

Internet jurnalistikasining ushbu yo‘nalishi xalqaro media maydonida allaqachon ommalashib ulgurgan bo‘lsa da, o‘zbek mediasida vakillari uchun hali begona. Chunki ayni paytda jurnalistlar an‘anaviy jurnalistikaga ixtisoslashganligi sababli, bu bo‘yicha bilim va tajriba ega emas. Shunga qaramasdan ushbu stereotiplardan biroz voz kechib o‘z tahririyatlarida data materiallar yaratilgan nashrlar ham yo‘q emas. Ulardan biri doimiy tarzda data materiallar yaratib, boshqa saytlarga ham namuna bo‘la olgan Gazeta.uz axborot portalidir.

Nashr O‘zbekistondagi boshqa onlayn medialar bilan taqqoslaganda ancha kreativroq. Shuningdek, tanlangan mavzu jihatidan ham boshqa OAVlardan ajralib turadi. Unda xilma-xil, rang-barang, siz xohlagan mavzuda, xohlagan format va ko‘rinishdagi materiallarni topishingiz mumkin. U o‘zbek mediasiga data

¹ Jonathan, G. Bounegru, L. The Data Journalism Handbook 1. European Journalism Centr., 2012. — P.40-45.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

jurnalistika tushunchasi kirib kelishidan avval o‘z materiallarini vizual tarzda taqdim etib kelgan. Aniqrog‘i uning boshqa saytlardan ustunlik tomini har bir yangilikni jurnalistikaning zamonaviy texnologiyalaridan foydalangan holda taqdim etishidir. Axborot portal 2008-yilning 11-avgustida ish boshlagan bo‘lib, yangiliklar o‘zbek, rus va ingliz tillarida nashr qilinadi. Unda e‘lon qilingan data materiallar ko‘pchilik obunachilarda qiziqish uyg‘ota olgan. Buning sababi esa an’anaviy jurnalistikadan biroz uzoqlashib, sonlarga asoslangan kreativ material yarata olishidir. Endi ushbu maqolalar bilan tanishib chiqsak. O‘zbekiston qayerda joylashgan? — Ukrainada urush boshlanganidan so‘ng Rossiya va Belarus internet foydalanuvchilarining O‘zbekistonga bo‘lgan qiziqishi qanday o‘zgardi² sarlavhali maqola Google trends sayti orqali tayyorlangan eng yaxshi materiallardan biri. Bunda nashr Rossiya, Belarus, Ukraina va O‘zbekiston internet foydalanuvchilari Ukrainada urush boshlanganidan so‘ng Google‘da nimalarni izlashgani bo‘yicha ma‘lumotlarni o‘rganib chiqqan.

Google Trends — bu Google qidiruviga asoslangan Google kompaniyasining ommaviy veb-illovasi bo‘lib, u dunyoning turli mintaqalari va turli tillardagi qidiruv so‘rovlarining umumiy hajmiga nisbatan ma‘lum bir atama qanchalik tez-tez qidirilishini ko‘rsatadi. Shuningdek, sizga real vaqt rejimida odamlar kuzatayotgan yoki kuzatmaydigan mavzularni ko‘rish imkonini beradi.³

² Norto‘raeva.N. O‘zbekiston qayerda joylashgan? — Ukrainada urush boshlanganidan so‘ng Rossiya va Belarus internet foydalanuvchilarining O‘zbekistonga bo‘lgan qiziqishi qanday o‘zgardi? — URL:<https://www.gazeta.uz/oz/2022/04/08/google-search/> (murojaat sanasi: 08.04.2022).

³ Google Trends: See what’s trending across Google Search, Google News and YouTube. — URL: <https://newsinitiative.withgoogle.com/resources/trainings/google-trends-lesson/>



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.


Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Rossiyaning qaysi hududida Google orqali O'zbekiston ko'proq qidirilgan?

2021-yil 11-apreldan 2022-yil 5-aprel davomida



Mazkur kartada esa Rossiya hududlarining O'zbekistonga qanchalik qiziqishi ifodalangan bo'lib, maqolani asl nusxasini o'qish davomida kartaning ustiga bosish orqali ularning aniq sonini bilish mumkin. Undan so'ng muallif diagramma orqali Moskvada O'zbekistongacha chipta narxi qancha bo'lganligi, ob-havo, dollar kursi, O'zbekistonga kirish qoidalari va Toshkent, Samarqand shaharlari bo'yicha necha marta qidirilganligi haqida ma'lumotlarni taqdim etadi. Bundan tashqari, Ukraina va Belorusiyaning O'zbekistonga bo'lgan qiziqishi va Belorusiyaning aynan qaysi hududlari O'zbekistonga qiziqish bildirayotganligi haqida keltirib o'tilgan. Materialning auditoriyani jalb qilishidagi asosiy sababi mavzuning dolzarbligi va ma'lumotlar diagramma orqali berilishidadir.

Shuningdek, iqtisodchi Botir Qobilov muallifligidagi "Umr bahosidagi daraxtlar" nomli maqola ham "Google Earth"da tayyorlangan ekologiya mavzusida yoritilgan eng yaxshid data materialdir.

"Qidiruv giganti" taqdim etgan zo'r loyihalardan biri – Google Earth xizmatidir. U foydalanadiganlarga er sayyorasining deyarli istalgan burchagini "yuqoridan" ko'rish imkoniyatini beradi. Qolaversa, bu servisdagi sayyoramizdagi kerakli obyektlar haqida ma'lumot olish, natijalarni tomosha qilish kabi qo'shimcha funksiyasi mavjud.⁴

Muallif mazkur maqolada Toshkentning ma'lum bir nuqtalarida necha yillardan buyon daraxtlarning kesilishi va suv havzalarining quritilishidan oldingi va keyingi

⁴ Google Earth ikkita ajoyib funksiya bilan kuchaytirildi. — URL: <https://www.terabayt.uz/post/google-earth-ikkita-ajoyib-funksiya-bilan-kuchaytirildi>. (murojaat sanasi:26.06.2018)



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

holatlari tasvirlarini keltirib o'tadi. To'g'ri yaqin yillardan buyon ekologiya mavzusida juda ham ko'p nashrlar maqolalar yozgan. Ammo ushbu materialda esa muammoni rasmlar orqali aniq tasvirlab bera olgan.

“Xorazm davlatidan Sovet ittifoqigacha. Hozirgi O'zbekiston hududida qaysi davlatlar hukmronlik qilgan?” sarlavhali⁵ maqolada bo'lsa O'zbekiston hududida asrlar davomida hukmronlik qilgan davlatlar xaritasi ko'rsatilgan. Maqola geacron.com tarixiy xaritalar platformasiga asoslanib tayyorlanganligi sababli, uni noodatiy tarzida tayyorlangan data material deb atash mumkin.

Geacron tarix tadqiqotlari, ta'lim va topilmalarni tarqatish uchun dunyodagi eng kuchli geo vaqt ma'lumotlar bazasini taqdim etadi. Uning vazifasi jozibador geo-vaqt xaritalari orqali tarixiy ma'lumotlarni hamma uchun universal qilishdir.⁶



Ushbu maqolada vizualizatsiya har bir davrga nisbatan yaxshi qilinganligi sababli auditoriyada katta qiziqish uyg'ota olgan. “Omikron O'zbekistonda yangi koronavirus to'lqinini boshlashi mumkinmi?”,⁷ sarlavhali maqola pandemiya davrida tahlil qilingan eng sara materiallardan biridir. U 2021-yil 6-dekabridan 2022-yil 8-yanvargacha O'zbekistonda koronavirus bilan kasallanganlar sonining o'sish dinamikasi ko'rsatadi. Shuningdek, maqolada eng e'tibor beradigan jihatlarini esa infografikalar orqali tasvirlab bergan.

⁵ Norto'rayev, N. Xorazm davlatidan Sovet ittifoqigacha. Hozirgi O'zbekiston hududida qaysi davlatlar hukmronlik qilgan? — video. — URL: https://www.gazeta.uz/oz/2022/02/05/history-map/?utm_source=push&utm_medium=telegram (murojaat sanasi: 16.08.2017).

⁶ Bluesyemre.GeaCron (Interactive World History Atlas since 3000 BC). — URL: <https://bluesyemre.wordpress.com/2017/08/16/geacron-interactive-world-history-atlas-since-3000-bc/> (murojaat sanasi: 16.08.2017).

⁷ Norto'rayev, N. “Omikron O'zbekistonda yangi koronavirus to'lqinini boshlashi mumkinmi?”. —URL: https://t.me/gazetauz_uzb/16793 (murojaat sanasi: 09.01.2022)



Proceedings of International Educators Conference


Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Bundan tashqari “O‘zbekiston baxtli mamlakatlar reytingida 11 pog‘ona pastladi”⁸ maqolada “World Happiness Report 2022” reytingida Markaziy Osiyo davlatlarining 5 yillik baxt reytingi diagramma holda beriladi. Unda raqamlar, ranglar va davlatlarning nomlarigina bor xolos. Ammo 6 davlatning 4 yillik reytingini o‘quvchilarga tushunarli tarzda yetkazib bera olgan. Qolaversa, xabarning asosiy maqsadi faqat O‘zbekistonning 2022-yilda oldingi yildagi o‘rnidan 5 pog‘ona pastlagani emas, O‘zbekiston va uning qardosh mamlakatlarning umumiy 4 yillik natijalarini taqqoslab berish bo‘lgan. Shunda o‘quvchida boshqa mamlakatlar haqida ham, bir necha yillik o‘rinlar haqida ham to‘liq ma’lumot paydo bo‘ladi.



Bunda obunachilarni e‘tiborini tortadigan narsa esa diagrammada ranglarning rang-barang berilishidir. Umuman olganda Gazeta.uzda tahlil qiladigan juda ham ko‘plab data materiallarni uchratishimiz mumkin. Lekin biz sizga auditoriyani qiziqтира olgan eng saralarini taqdim qildik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. What Is Data Journalism? – URL: http://datajournalismhandbook.org/1.0/en/introduction_0.html (murojaat sanasi: 10.01.2016)
2. Norto‘raeva.N. O‘zbekiston qayerda joylashgan? — Ukrainada urush boshlanganidan so‘ng Rossiya va Belarus internet foydalanuvchilarining O‘zbekistonga bo‘lgan qiziqishi qanday o‘zgardi? —

⁸ Norto‘rayev, N. O‘zbekiston baxtli mamlakatlar reytingida 11 pog‘ona pastladi. — URL: <https://www.gazeta.uz/oz/2022/03/20/happiness-report/> (murojaat sanasi: 20.03.2022)

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

URL: <https://www.gazeta.uz/oz/2022/04/08/google-search/> (murojaat sanasi: 08.04.2022).

3. Google Trends: See what's trending across Google Search, Google News and YouTube. — URL:

<https://newsinitiative.withgoogle.com/resources/trainings/google-trends-lesson/>

4. Google Earth ikkita ajoyib funktsiya bilan kuchaytirildi. — URL: <https://www.terabayt.uz/post/google-earth-ikkita-ajoyib-funktsiya-bilan-kuchaytirildi>. (murojaat sanasi: 26.06.2018).

5. Norto'rayev, N. Xorazm davlatidan Sovet ittifoqigacha. Hozirgi O'zbekiston hududida qaysi davlatlar hukmronlik qilgan? — video. — URL: https://www.gazeta.uz/oz/2022/02/05/history-map/?utm_source=push&utm_medium=telegram (murojaat sanasi: 16.08.2017).

6. Bluesyemre.GeaCron (Interactive World History Atlas since 3000 BC). — URL: <https://bluesyemre.wordpress.com/2017/08/16/geacron-interactive-world-history-atlas-since-3000-bc/> (murojaat sanasi: 16.08.2017).

7. Norto'rayev, N. "Omikron O'zbekistonda yangi koronavirus to'liqini boshlashi mumkinmi?". — URL: https://t.me/gazetauz_uzb/16793 (murojaat sanasi: 09.01.2022)

8. Norto'rayev, N. O'zbekiston baxtli mamlakatlar reytingida 11 pog'ona pastladi. — URL: <https://www.gazeta.uz/oz/2022/03/20/happiness-report/> (murojaat sanasi: 20.03.2022).

